

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.B.38.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

JALILOV JAMSHED JAFAR O'G'LI

**HISOR TOG' TIZMASI QORINOYOQLI MOLLYUSKALARINING
(MOLLUSCA: GASTROPODA, PULMONATA) BIOLOGIK XILMA-
XILLIGI**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Guliston – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Jalilov Jamshed Jafar o‘g‘li

Hisor tog‘ tizmasi qorino yoqli mollyuskalarining (Mollusca: Gastropoda, Pulmonata) biologik xilma-xilligi3

Жалилов Жамшед Жафар угли

Биологическое разнообразие брюхоногих моллюсков (Mollusca: Gastropoda, Pulmonata) Гиссарского хребта.....21

Jalilov Jamshed Jafar o‘g‘li

Biodiversity of gastropods mollusks (Mollusca: Gastropoda, Pulmonata) of the Gissar range.....41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.B.38.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

JALILOV JAMSHED JAFAR O'G'LI

**HISOR TOG' TIZMASI QORINOYOQLI MOLLYUSKALARINING
(MOLLUSCA: GASTROPODA, PULMONATA) BIOLOGIK XILMA-
XILLIGI**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Guliston – 2026

Biologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/B1457 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.karsu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Pazilov Abduvayeit**
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Halimov Fazlitdin Zakirovich**
biologiya fanlari doktori, dotsent

Shakarbaev Ulug'bek Abdulakimovich
biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot: **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Guliston davlat universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.B.38.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «25» aprel kuni soat 11⁰⁰dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 120100, Sirdaryo viloyati Guliston shahri, 4-mavze Tel.: (+99867) 225-39-25, faks: (+99867) 225-39-25, E-mail: glsuinfo@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Guliston davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 117 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 120100, Sirdaryo viloyati Guliston shahri, 4-mavze Tel.: (+99867) 225-39-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «09» aprel kuni tarqatildi.
(2026-yil «09» aprel № 1sonli reestr bayonnomasi)



X. K. Karshibayev
Ilmiy daraja beruvchi
ilmiy kengash raisi
o'rinbosari, b.f.d., professor

F.P.Gaibnazarova
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, PhD, dotsent

E.B.Shakarboyev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqiyosida inson faoliyatining tabiatga bo‘lgan ta’siri keskinlashib borayotgan bir davirda, bioxilma-xillikni saqlash, tabiiy ekotizimlarning barqarorligini ta’minlash global muammo bo‘lib qolmoqda. Antropogen omillar ta’sirida tabiiy ekotizimlarning kuchli o‘zlashtirilishi, ayniqsa tog‘ ekotizimlardagi muovzanatni buzilishi (tog‘ oldi mintaqalarini o‘zlashtirilishi, daraxt va butalarni qir qilishi, chorva mollariga haddan tashqari foydalanish) u yoki bu hayvonning ekologik muhitga salbiy tasir etib, shu yerda yashaydigan hayvonot olamiga, jumladan mollyuskalar bioxilma-xilligini o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda.

Jahonda ekotizimdagi hayvonot olamining muhim vakillaridan biri bo‘lgan mollyuskalarning hozirgi kundagi holatini baholash, faunistik tarkibini aniqlash, o‘zgaruvchanlik jarayonlarini tahlil qilish va qonuniyatlarini ochib berish, hamda kamyob va endemik turlarni saqlab qolish chora-tadbirlarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada mollyuskalarning barcha retsent turlar to‘g‘risida ma’lumotni o‘z ichiga olgan GAT xaritasini tuzish va elektron bazasi yaratish, tadqiqot hududida tarqalgan o‘ta o‘zgaruvchan va endemik turlarning molekulyar-genetik jihatidan tahlil qilib, olingan natijalarni xalqaro ma’lumotlar bazasiga kiritishga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda ekotizimlar bioxilma-xilligini saqlash, jumladan mollyuskalar xilma-xilligini aniqlash, hamda ularga oid yangi ma’lumotlar bazasini shakillantirishga alohida e’tibor qaratilib, bu borada, fan va O‘zbekiston faunasi uchun yangi bo‘lgan turlar aniqlandi va yo‘qolib ketish havfi ostidagi turlarni qayta tiklash chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Xususan, 2019-2028 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasida¹ “...biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanishni ta’minlash, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni rivojlantirish va kengaytirish, tabiiy ekologik tizimlarning tanazzulga uchrash sur’atlarini pasaytirish, hayvonlar va o‘simliklarning kamyob va yo‘qolib borayotgan turlarini qayta tiklash” vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, Hisor tog‘ tizmasi qorinoyoqli mollyuskalarining bioxilma-xilligini aniqlash, balandlik mintaqalar bo‘yicha tarqalishini o‘rganish, o‘ta o‘zgaruvchan va endemik turlarning molekulyar-genetik jihatidan tahlil qilish, yo‘qolib ketish havfi ostidagi turlarni qayta tiklash chora-tadbirlar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni², O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-noyabrdagi 914-son “Hayvonot va o‘simlik dunyosi obyektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2019-2028 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash

¹ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2019-2028 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасида биологик хилма-хилликни сақлаш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” 2019 йил 11 июндаги 484-сон қарори.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харақатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони.

to'g'risida" 2019-yil 11-iyundagi 484-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qorinoyoqli mollyuskalarining hozirgi sistematik holati, tarqalishi va o'zgaruvchanlikka oid tadqiqotlar uzoq xorijning yetakchi olimlari: R.J.Brown (2007), A.D.Robert (2013), M.V.Vinarski (2014), G.Atli, M.Grosell (2016), A.Piechocki, B.Wawrzyniak-Wydrowska (2016), WU.Min (2023), N.G.Kumari (2025) ishlarida o'z ifodasini topgan.

Yaqin xorij mamlakatlari olimlaridan A.P.Stadnichenko (2004) N.D.Kruglov (2005), A.A.Shileyko (1979,1984), A.A.Shileyko, T.S.Rimjanov (2013), K.K.Uvaliyeva (1990), E.A.Snegin, V.V.Adamova (2016), I.A.Balashyov (2021) ishlarida qorinoyoqli mollyuskalarning sistematikasi, tarqalishi va o'zgaruvchanlikka oid tadqiqotlar olib borilgan.

O'zbekiston malakofaunasini o'rganish Z.Izzatullayev (1987, 2004, 2010, 2015, 2018, 2019), A.Pazilov (1991, 1992, 2005, 2007, 2016), A.Pazilov va A.Daminova (2002), A.Pazilov va D.Azimov (2003), A.Karimqulov (2011, 2022, 2024), A.Pazilov, F.Gaibnazarova, A.Karimqulov (2016), F.Gaibnazarova (2017, 2022), J.Qudratov (2018, 2025), Sh.Abdulazizova (2018, 2019), Z.Maxmudjonov (2021) F.U.Umarov (2022), I.Avazmetova (2023) lar tomonidan qorinoyoqli mollyuskalarning faunasi, biologiyasi, ekologik xususiyatlari, zoogeografiyasi va ularda boradigan o'zgaruvchanlik jarayonlari hamda xo'jalik ahamiyatiga doir tadqiqot ishlari olib borilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi tahlili shuni ko'rsatdiki, O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston malakofaunasiga oid ma'lumotlar keraklicha mavjud bo'lsada, biroq Hisor tog' tizmasi malakofaunasi bioxilma-xilligining zamonaviy holatini baholash imkonini bermaydi. Hisor tog' tizmasi suv qorinoyoqli mollyuskalarining faunasi, tarqalish xususiyatlariga oid ma'lumotlar yetarlicha mavjud emas, quruqlik mollyuskalarga oid ma'lumotlar esa fragmentar xarakterga ega.

Shunga ko'ra, Hisor tog' tizmasi qorinoyoqli mollyuskalarni kompleks tadqiq qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz Davlat universiteti "2020-2025 yillarda ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi" doirasida (2022-2025) bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Hisor tog' tizmasi qorinoyoqli mollyuskalar biologik xilma-xilligining zamonaviy holatini baholash, endemik va kamyob turlarni muhofaza qilish chora-tadbirlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Hisor tog' tizmasi qorinoyoqli mollyuskalarning taksonomik tarkibini aniqlash va populyatsiyalarning zamonaviy holatini baholash;

qorinyoqli mollyuskalarining balandlik mintaqalari bo'yicha tarqalishini aniqlash;

keng tarqalgan turlarda boradigan o'zgaruvchanlik jarayonlarini tadqiq etish;
o'ta o'zgaruvchan turlarning molekulyar-genetik tahlil qilish;

endemik va kamyob turlar tarkibini aniqlash va muhofaza qilish chora-tadbirlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida Hisor tog' tizmasida tarqalgan qorinyoqli mollyuskalari olingan.

Tadqiqot predmeti. Qorinyoqli mollyuskalarining biologik xilma-xilligi, balandlik mintaqalardagi biotoplar bo'yicha tarqalishi, ularda boradigan o'zgaruvchanlik jarayonlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarni bajarishda umumiy qabul qilingan zoologik, malakologik, statistik, qiyosiy tahlil va molekulyar-genetik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Hisor tog' tizmasining qorinyoqli molluskalari zamonaviy holati tahlil qilinib, 15 oila, 25 avlodga mansub, 59 turdan iborat taksonomik ro'yxati tuzilgan;

hudud faunasi uchun suv mollyuskalaridan 5 ta yangi tur (*S.pallida*, *L.bowelli*, *L.subdisjuncta*, *L.tengriana*, *L.rectilabrum*), O'zbekiston faunasi uchun 2 ta yangi tur (*L.alticola*, *L.sirikulensis*) aniqlangan;

quruqlik mollyuskalari faunasini o'rganish natijasida fan uchun yangi tur *Turanena gissarika* sp. nov. aniqlandi. O'zbekiston faunasi uchun yangi hisoblangan *Cochlicella columella* turi ilk bor qayd etildi. Tadqiqot hududi doirasida *Candaharia izzatullaevi* va *Xeropicta krynickii* turlari xam ilk bor aniqlanib, hudud faunasi uchun yangi turlar sifatida baholandi.

quruqlik molluskalarining balandlik mintaqalari bo'yicha notekis tarqalishi va chig'anoq belgilar o'zgaruvchanligi (shakli, rangi, qalinligi, skulpturasi, kindik tuzilishi va o'lchamlari), yashash muhitiga bog'liq ekanligi isbotlangan;

fenotipik o'zgaruvchanligi yuqori bo'lgan qorinyoqli molluskalar (*Chondrulopsina intumescens*, *Leucozonella hypophaea*)da reproduktiv organlar tuzilishida keskin o'zgaruvchanlik aniqlangan va turlarining ribosomal DNK ning 18S sohasi genetik materialdagi farqlar asosida o'zgaruvchanlik sabablari ochib berilgan;

Ch. intumescens, *L. hypophaea* turlarining ribosomal DNK (rDNK)ning 18S sohasi va *Turanena gissarika* sp. nov. hamda *T. cognata* turlarining mitoxondrial DNKsi COI sohasi bo'yicha nukleotidlar ketma-ketligidagi farqlar aniqlangan;

tadqiqotlar natijasida ilk bor hududning endem va kamyob turlar tarkibi aniqlandi hamda muhofazaga muhtoj mollyuskalarning tarqalishini cheklovchi asosiy ekologik omillar ilmiy asoslandi. Quruqlik molluskalarining *Ar. eleorina* va *H.inclatatus* turlarini O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritish uchun tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Hisor tog' tizmasi qorinyoqli mollyuskalarning yig'ilgan namunalari asosida 59 tur va 3570 (suv qorinyoqli mollyuskalari 1589 ta, quruqlik mollyuskalari 1981) nusxadan iborat mollyuskalar kolleksiyasi yaratilgan.

Hisor tog‘ tizmasi qorinoqli mollyuskalarning noyob va kam sonli turlarini Respublika “Qizil Kitobi” ga kiritish bo‘yicha tavsiyalar hamda muhofaza qilish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Qorinoqli mollyuskalar 2 ta turining rDNKsi 18S sohasi nukleotidlar ketma-ketligini aniqlash va Genbank bazasiga ilk marotaba joylashtirish orqali ushbu turlar identifikatsiyasi hamda filogenetik tadqiqotlar uchun manba yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan malakologik, zoologik, molekulyar-genetik usul va yondoshuvlar asosida olingan tajriba natijalarini nazariy ma‘lumotlarga mos kelishi, morfometrik ma‘lumotlarni “TIBCO Software Statistica 13.5” dasturi asosida statistik tahlil qilinganligi, dissertatsiya natijalarini yetakchi xorijiy jurnallarda chop etilganligi hamda ishlab chiqilgan tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligining vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilk bor Hisor tog‘ tizmasi suv qorinoqli mollyuskalarining sistematik ro‘yxati tuzilganligi, quruqlik mollyuskalarning zamonaviy taksonomik holati aniqlanganligi, balandlik mintaqalar bo‘yicha tarqalishiga oid va reproduktiv organlarning o‘zgaruvchanligiga oid yangi ma‘lumotlar olinganligi, o‘ta o‘zgaruvchan turlarning nukleotidlari ketma-ketligi tadqiq etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qorinoqli mollyuskalarning balandlik mintaqalari bo‘yicha notekis tarqalish qonuniyatlariga oid ma‘lumotlar, endemik va kamyob turlar sonini muntazam monitoring qilish, shuningdek ularni muhofaza qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va takomillashtirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Hisor tog‘ tizmasi qorinoqli mollyuskalarining (Mollusca: Gastropoda, Pulmonata) biologik xilma-xilligi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Qorinoqli mollyuskalarining tarqalish hududlari, muhofazaga muhtoj turlarining populyatsion holati va ularni saqlab qolish bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Surxondaryo viloyati Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi nazorat bo‘yicha Sariosiyo tuman inspeksiyasining faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof - muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2025 yil 07 avgustdagi 03-03/1-03/3-7790 - sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, Sariosiyo tumanida tarqalgan quruqlik mollyuskalarning tur tarkibini aniqlash, ularning geoaxborot ma‘lumotlarini shakllantirish, tabiiy ekosistemalarda bioxilma-xillikni va noyob mollyuska turlarini saqlab qolish hamda hayvonot dunyosi davlat kadastrini yuritish imkonini bergan.

Turanena gissarika PV547697, *Turanena cognata* PV544940, *Leucozonella hypophaea* PV544938, *Leucozonella hypophaea* PV544937, *Leucozonella hypophaea* PV544936, *Chondrulopsina intumescens* PV544946 va *Chondrulopsina intumescens* PV544945 Milliy bioinformatik axborotlar (NCBI) bazasiga joylashtirilgan (Biotexnologik axborotlar Milliy markazi, www.blast.ncbi.nlm.nih.gov 2025-yil 25-apreldagi ma‘lumotnomasi). Natijada, 18S ribosomal DNK va COI mitoxondrial DNK genlari nukleotidlar ketma-ketligining qiyosiy tahlil qilish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 17 ta ilmiy ish nashr etilgan. Ulardan 1 ta tavsiyanoma, 8 ta maqola, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi OAK tomonidan doktorlik dissertatsiyasining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya qilgan 5 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 5 ta bob, xulosa, foydalanigan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 116 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsad va vazifalar, shuningdek, tadqiqotning ob‘ekt va predmeti ifodalangan, unda tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirish yo‘nalishlariga muvofiqligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

“Qorinoyoqli mollyuskalarining o‘rganishga doir adabiyotlar tahlili” deb nomlangan birinchi bobda O‘zbekiston va unga tutash hududlarda tarqalgan suv va quruqlik qorinoyoqli mollyuskalarining o‘rganilishi bo‘yicha olib borilgan faunistik, ekologik va molekulyar genetik tadqiqotlar bo‘yicha 89 ta mahalliy va 86 ta xalqaro adabiyot manbalari tahlilining natijalari bayon etilgan. Tahlil qilingan ilmiy manbalar O‘rta Osiyo qorinoyoqli mollyuskalarini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar davomida Hisor tog‘ tizmasi malakofaunasi o‘rganilgan bo‘lsada, lekin aksariyat-o‘tgan asrning 70 yillarigacha olib borilgan izlanishlar tarixiy asarlarga va mollyuskalarning tarixiy kolleksiyalariga asoslangan holda bajarilganligini, qolgan davrdagi tadqiqotlar fragmentar xarakterga ega bo‘lib, tadqiqot hududining bugungi malakofaunistik holati ochib berilmaganligini ko‘rsatib, mazkur tadqiqot ishining dolzarbligini belgilab bergan.

“Tadqiqot materiallari va metodlari” deb nomlangan ikkinchi bobda tadqiqot hududining tabiiy-geografik tavsifi, dala tajribalari olib borilgan hududlar hamda tadqiqot metodlari bayon qilingan.

Tadqiqot materiallari 2021-2025 yillarda Daragiston qishlog‘i (Doran-Son) tepaliklari, soy va buloqlari 38°35‘51.99”N 68°03‘30.44”E, Sangardak qishlog‘i tepaliklari, Sangardak tog‘i, Qizilsuv daryosi, soy va buloqlari 38°33‘41.42”N 67°30‘10.59”E, Dashnabod qishlog‘i tepaliklari va soyi 38°32‘14.45”N 68°02‘31.99”E, Boysunobod qishlog‘i, Obuzaray soyi, Navdik va Bayxur tog‘lari, janubi-g‘arbiy va shimoliy qismi 38°33‘46.19”N 67°59‘09.36”E, Sharg‘un koni atrofidagi soy va tepaliklar 38°37‘02.14”N 67°56‘50.06”E, Issiq chashma qishlog‘i chashma va tog‘lari 38°34‘07.35”N 67°54‘40.81”E, Kenguzar qishlog‘i tepaliklari va soyi 38°26‘05.71”N 67°47‘42.98”E, Kundai juvoz qishlog‘i To‘palang suv ombori va atrofidagi tepaliklar, unga quyiluvchi soylar hamda tog‘ 38°38‘39.23”N

67°49'38.66"E, Tojikiston Respublikasi, Shirkent mahallasi atrofidagi tog'lar va soylar 38°40'57.40" N 68°13'35.08"E, Gulxas qishlog'i atrofidagi soy va tepaliklar 38°37'52"N 68°07'07"E, Xusnobod mahallasi atrofidagi tog'lar, buloq va soylar 38°38'43"N 68°09'35"E, Hayrobot mahallasi atrofidagi soy va tepaliklar 38°37'24"N 68°13'22"E, Yuqori Hayrobot qishlog'i atrofidagi Kambar tepaligining atrofi 38°39'31"N 68°13'34"E, M.Tursunzoda mahallasi atrofidagi soy va tepaliklari 38°33'32"N 68°12'24"E, Shaxrinav mahallasi atrofidagi tepaliklar 38°35'09"N 68°20'46"E, Abdu tepaligi atrofidagi buloq va soylar 38°42'48"N 68°21'46"E, Karatag' daryosi va atrofidagi tepaliklar, unga quyiluvchi soylar hamda tog' 38°42'09"N 68°22'20"E, Sho'rxok qishlog'i atrofidagi tepaliklar 38°41'13"N 68°20'13"E, Kushkaki mozar mahallasi atrofidagi soy va tepaliklar 38°42'39"N 68°31'39"E, Turushbog' qishlog'i atrofidagi chashma va tog'lari 38°42'04"N 68°31'54"E, Durmanbuloq qishlog'i atrofidagi soy va tepaliklar 38°40'04"N 68°38'33"E, Chag'atoy qishlog'i atrofidagi tepaliklar 38°37'26"N 68°37'32"E, Xonjizza qishlog'i tepaliklari, tog'lari, soy va buloqlari 38°38'35.78"N 67°35'48.02"E, Chosh qishlog'i atrofidagi tog'lar va soylar 38°42'08.35"N 67°37'39.34"E, Duob qishlog'i atrofidagi tog'lar, buloq va soylari 38°43'29.10"N 67°41'21.69"E, Qashqadaryo viloyati, Hisorak qishlog'i, Hisorak suv ombori atrofidagi tog'lar va soylari 39°00'32.16"N 67°13'15.16"E, Qashqadaryo viloyati, Bashkop qishlog'i tepaliklari 39°59'17.35"N 67°15'46.88"E, Qashqadaryo viloyati, Suvtushar qishlog'i tepalik va tog'lari 39°58'09.92"N 67°18'31.66"E, Qashqadaryo viloyati, Gelon qishlog'i atrofidagi tepaliklar, tog'lar va soylari 39°04'49.85"N 67°27'28.93"E dan yig'ilgan jami 3570 donadan ortiq mollyuskalar, jumladan, 1589 dona suv va 1981 dona quruqlik mollyuskalari namunalari foydalanilgan.

Yig'ilgan materiallarni fiksatsiya qilish, laboratoriya sharoitida materialga qayta ishlov berish va turlar tarkibini aniqlashda Jadin V.I. (1960), Morduxay–Boltovskiy F.D. (1975), Bratchik R.Ya. (1976), Kruglov N.D. (2005), Shileyko A.A. (1978-1984); mollyuskalarda boradigan o'zgaruvchanlik jarayonlarini o'rganish va qiyosiy tavsiflashda Lakin G.F. (1980), Terentev P.V., Rostova N.S. (1977), Rostova N.S. (1978) metodlari qo'llanilgan. Shuningdek, chig'anoq hajmi va og'iz maydoni Snegin E.A. va Adamova V.V. formulalari (2016) asosida hisoblangan. Olingan malumotlarning statistik tahlili va diagrammlar "TIBCO Software Statistica 13.5" dasturida qilingan. Balandlik mintaqalar malakofaunasining o'xshashlik koeffitsiyentlari Jakkar formulasi asosida hisoblangan. Mollyuskalarda COI, 18S genlarining nukleotid ketma-ketligi Frederick Sanger (1918–2013) metodi orqali aniqlangan. Qorinoyoqli mollyuskalarning endemik va noyoblik darajasini aniqlashda Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi (IUCN) tomonidan ishlab chiqilgan mezonlar tizimidan foydalanilgan. Molekulyar genetik tadqiqotlar O'zR FA Zoologiya instituti "Molekulyar zoologiya" laboratoriyasida bajarilgan.

«Hisor tog' tizmasi qorinoyoqli mollyuskalarining biologik xilma-xilligi» deb nomlangan uchinchi bobda tadqiqot hududi suv va quruqlik qorinoyoqli mollyuskalarining taksonomik tavsifi, ularning turli balandlik mintaqalari va biotoplarda tarqalishi, populyatsiya zichligini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari bayon qilingan.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra Hisor tog‘ tizmasida qorinoyoqli mollyuskalarining 15 oila, 25 avlodga mansub 59 turi tarqalganligi aniqlangan. Ulardan, 5 oila 8 avlodga mansub 21 turi suv mollyuskalari hisoblanib, quyida sistematika va nomenklaturaning zamonaviy holati bo‘yicha suv qorinoyoqli mollyuskalarning taksonomik ro‘yxati keltirilgan. Tadqiqot hududida ilk bor qayd qilingan turlar yulduzcha (*) bilan belgilangan:

Mollusca Cuvier, 1795 tipi

Conchifera Gegenbaur, 1878 kenja tipi

Gastropoda Guver, 1795 sinfi

Pectibranchia Blainville, 1814 - kenja sinfi

Littoriniformes Pcelintsev, 1863- turkumi

Belgrandiellidae Radoman, 1983 - oilasi

Martensamnicolinae Izzat., Sitn. et Star, 1985- kichik oilasi

Martensamnicola Izzat., Sitn. et Star, 1985- avlodi

1. *Martensamnicola hissarica* (Shadin, 1950).

Buchramnicolinae Izzat., Sitn. et Star, 1985- kichik oilasi

Bucharamnicola Izzat., Sitn. et Star, 1985-avlodi

2. *Bucharamnicola bucharica* (Shadin, 1952).

Horatiidae Radoman, 1973- oilasi

Orientalininae 1978- kichik oilasi

Sogdamnicola Izzatullaev, Stin, et Star.in Izzat., 1984- avlodi

3. *Sogdamnicola pallida* (Martens, 1874).*

Pseudohoratiinae Radoman, 1973- kichik oilasi

Valvatamnicola Izzat., Sitn. et Star, in Izzat. 1984- avlodi

4. *Valvatamnicola prasina* (Rosen, 1903).

Pulmonata Cuvier, 1814- kenja sinfi

Lymnaeiformes Feruccak, 1814- turkumi

Lymnaeidae Rafinesque, 1815- oilasi

Lymnaea Lamarck, 1799-avlodi

Galba Schranck, 1803- kichik avlodi

5. *Lymnaea (G) oblonga* (Puton, 1847), 6. *Lymnaea (G) truncatula* Muller, 1774.,

7. *Lymnaea (G) bowelli* Preston, 1909.,* 8. *Lymnaea (G) tengriana* Izzatullaev, Kruglov et Starobogatov, 1983.*

Radix Monfort, 1810- kichik avlod

9. *Lymnaea (R) psilia* Bourignat 1862. 10. *Lymnaea (R) alticola* Izzatullaev, Kruglov et Starobogatov, 1983.,* 11. *Lymnaea (R) rectilabrum* Annandale et Prashad, 1919.,* 12. *Lymnaea (R) sirikulensis* Nevill, 1878.,* 13. *Lymnaea (R) subdisjuncta* Nevill, 1878.,* 14. *Lymnaea (R) auricularia* (Linne, 1758).,

15. *Lymnaea (R) bactriana* Hutton, 1850.

Physidae Firzinger, 1833 -oilasi

Physinae Fitzinger, 1883- kichik oilasi

Costatella Dall, 1870- avlodi

16. *Costatella acuta* Draparnaud, 1805., 17. *Costatella integra* (Haldeman, 1841).

Planorbidae Rafinesque, 1815-oilasi

Planorbinae Rafinesque, 1815- kichik oila

Planorbis Geoffray, 1767- avlodi

18. *Planorbis tangitarenis* Germain, 1918., 19. *Planorbis planorbis* (Linne, 1758).

Anisus Studer, 1820-avlodi

Gyraulus Agassiz in Charpentr. 1837- kichik avlodi

20. *Anisus albus* (Muller, 1878)., 21. *Anisus* (G) acronicus (Ferussac, 1807).

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Hisor tog' tizmasida quruqlik mollyuskalarining 10 oila, 17 avlodga mansub 38 turi tarqalganligi aniqlangan. Quyida sistematika va nomenklaturaning zamonaviy talablari asosida turlarning taksonomik ro'yxati (! - fan uchun yangi tur; * - hudud faunasidagi yangi turlar) keltirilgan:

Pulomonata Guver in Blainville, 1854- kenja sinfi

Stylommatophora A.Schmid, 1855- katta turkumi

Geophila Ferussak, 1812- turkumi

Pupilloidei Schileyko, 1979- kenja turkumi

Pupilloinei Schileyko, 1979- infraturkumi

Orculoidea Steenberg, 1925- katta oilasi

Orculidae Steenberg, 1925- oilasi

Sphyradium Charpentier, 1837- avlodi

1. *Sphyradium doliolum* (Brugieri, 1792).

Vallonidae Morse, 1864 - oilasi

Valloniinae Morse, 1864 - kichik oilasi

Vallonia Risso, 1826 - avlodi

2. *Vallonia costata* (Muller, 1774). 3. *Vallonia pulchella* Muller, 1774.

Cochlicopidae Pilsbry, 1900- oilasi

Cochlicopa Ferussac, 1821- avlodi

4. *Cochlicopa nitens* (Gallenstein, 1852)., 5. *Cochlicopa dushanbensis* Starobogatov, 1996., 6. *Cochlicopa lubrica* (Muller, 1774)., 7. *Cochlicopa izzatullaevi* Starobogatov, 1996.*

Pupillidae Turton, 1831- oilasi

Gibbulinopsis Germain, 1919- avlodi

8. *Gibbulinopsis signata* Mousson, 1873., 9. *Gibbulinopsis nanosignata* Schileyko et Izzatullaev, 1980.

Pupilla Turton, 1931- avlodi

10. *Pupilla (Pupilla) triplisata* (Studer, 1820)., 11. *Pupilla (Pupilla) muscorum* (Linnaeus, 1758)., 12. *Pupilla (Pupilla) anzobica* Izzatullaev, 1970.

Enidae Woodward, 1903- oilasi

Pseudopaeinae Schileyko, 1978- kichik oilasi

Columella Westerlund, 1878 avlodi

13. *Columella columella* G. Martens, 1830.*

Pseudonapaeus Westerlund, 1887- avlodi

14. *Pseudonapaeus (Pseudonapaeus) albiplicatus* (Martens, 1874).,

15. *Pseudonapaeus (Ps.) kasnakowi* (Westerlund, 1898)., 16. *Pseudonapaeus (Ps.) otostomus* (Westerlund, 1899)., 17. *Pseudonapaeus (Ps.) sogdianus* (Martens, 1874).,

18. *Pseudonapaeus (Ps.) maydanica* Gaibnazarova et Pazilov, sp.nov.

Turanena Lindholm, 1922- avlodi

19. *Turanena martensiana* Ancy, 1886., 20. *Turanena gisarika* sp.nov.*

Chondrulopsininae Schileyko, 1978 kichik oilasi

Chondrulopsina Lindholm, 1925- avlodi

21. *Chondrulopsina intumescens* (Ancey, 1886).

Higromiidae Tryon, 1886- oilasi

Trichinae Zilch et Jaeckel, 1978- kichik oilasi

Leucozonella Lindholm, 1927- avlodi

22. *Leucozonella (Leucozonella) schileykoi* Razilov et Daminova.2001.

23. *Leucozonella (Leucozonella) rufispira* (Martens, 1874).

24. *Leucozonella (Leucozonella) retteri* (Rosen, 1897).

25. *Leucozonella (Narinula) hypophaea* (Lindholm, 1927).

Xeropicta Monterosato, 1802-avlodi

26. *Xeropicta candacharica* (L. Pfeiffer, 1846).,

27. *Xeropicta krynickii* (Krynicky, 1833).*

Archaicinae Schileyko,1978- kichik oilasi

Archaleucozonella Pazilov, 2003- avlodi

28. *Archaleucozonella eleorina* Pazilov, 2003.

Hissarica Pazilov, 2003 -avlodi

29. *Hissarica inclatatus* Pazilov, 2003.

Vitrinidae Fitzinger, 1833 oilasi

Phenacolimacidae Schileyko, 1978- kichik oilasi

Phenacolimax Stabile, 1859- avlodi

30. *Phenacolimax annularis* (Studer, 1820).

Agriolimacidae Wagner, 1975- oilasi

Deroceras Rafinesque, 1820- avlodi

31. *Deroceras (Deroceras) laeve* (Muller, 1774)., 32. *Deroceras (Deroceras) sturanyi* Simroth, 1889., 33. *Deroceras (Agriolimax) agreste* Linnaeus, 1758.,

34. *Deroceras (Agriolimax) reticulatum* Muller, 1774., 35. *Deroceras (Liolytopelte) caucasicum* Simroth, 1901.

Parmacellidae Gray, 1860- oilasi

Candaharia Godwin-Austen, 1888- avlodi

36. *Candaharia (Levanderia) levanderi* Simroth, 1901., 37. *Candaharia (Levanderia) langarica* Pazilov et Daminova 2001.

Helicarionidae Bourguignat, 1883- oilasi

Macrochlamys Benson, 1832- avlodi

38. *Macrochlamys turanica* (Martens, 1874).

Tadqiqotlarda, Hisor tog‘ tizmasidan yuqorida qayd etilgan suv mollyuskalaridan Lymnaeidae oilasi (52,4 %), quruqlik mollyuskalaridan Enidae (21,6 %) va Higromiidae (18,9 %) oilalari vakillari dominantlik qilishi ko‘rsatib berilgan (1-2-jadval).

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, quruqlik mollyuskalarning taksonomik tarkibi fan uchun yangi tur (*T. gissarika*) hisobiga ko‘paygan. *T. gissarika* sp. nov. turining chig‘anoq tuzilishi Chotqol tog‘ tizmasining Ortoqbel dovoniga yaqin hududda tarqalgan *T. cognata* turi chig‘anog‘iga ma‘lum darajada o‘xshaydi. Biroq, *T. gissarika* quyidagi morfologik belgilari bilan ajralib turadi: chig‘anoq devorlari ancha qalin va mustahkam, yuqori o‘ramlari doimiy ravishda to‘q qo‘ng‘ir rangda, bu

holat hatto bo'sh chig'anoqlarda ham saqlanib qolgan. Shu'lasimon burmalari juda qo'pol bo'lib, ba'zan qovurg'a shakliga ega (rasm-1).

Shuningdek, yangi turning reproduktiv (jinsiy) organi ham avlodga mansub boshqa turlardan farq qiladi. Jumladan, epifallusdagi sekumning qarshi tomonida (*Chondrulopsina* avlodi turlariga xos bo'lgan) bo'rtma kuzatiladi. Shuningdek, penisning ichki tuzilishidagi V-shaklidagi papilla juda kichik o'lchamli bo'lib, uning quyi qismida bir nechta ancha rivojlangan bo'ylama qatlamlar joylashgan (rasm-2).

1-jadval

Hisor tog' tizmasidagi suv qorinoyoqli mollyuskalarining taksonomik tarkibi

Mollyuskalar oilalari	Taksonomik birliklar soni			
	Kichik oilalar soni	Avlodlar soni	Tur	
			Miqdori	Umumiy songa nisbatan % hisobida
Belgrandiellidae	2	2	2	9,52
Horatiidae	2	2	2	9,52
Lymnaeidae	-	1	11	52,4
Physidae	1	1	2	9,52
Planorbidae	1	2	4	19,04
Jami: 5	6	8	21	100,0

2-jadval

Hisor tog' tizmasidagi quruqlik mollyuskalarining taksonomik tarkibi


Mollyuskalar oilalari	Taksonomik birliklar soni			
	Kichik oilalar soni	Avlodlar soni	Tur	
			Miqdori	Umumiy songa nisbatan % hisobida
Orculidae	-	1	1	2,63
Vallonidae	1	1	2	5,26
Cochlicopidae	-	1	4	10,52
Pupillidae	-	2	5	13,15
Enidae	2	4	9	23,67
Higromiidae	2	4	8	21,1
Vitrinidae	1	1	1	2,63
Agriolimacidae	-	1	5	13,15
Parmacellidae	-	1	2	5,26
Helicarionidae	-	1	1	2,63
Jami: 10	6	17	38	100,0

Tadqiqot davomida Hisor tog' tizmasida tarqalgan qorinoyoqli mollyuskalarning turli balandlik mintaqalari va biotoplar bo'yicha tarqalishi o'rganilgan. Jumladan, suv qorinoyoqli mollyuskalarining adir va tog' mintaqalarida 3-6 tadan biotopda, yaylov mintaqasida 1 biotopda tur tarkibi va populyatsiya zichligi tadqiq qilinib, ularning balandlik mintaqalari va biotoplarda notekis taqsimlanganligi qayd qilingan: adir mintaqasida 18 tur, tog' mintaqasida 12 tur va yaylov mintaqasida 2 tur (rasm-3).


Suv qorinoyoqli mollyuskalarning balandlik mintaqalari malakofaunasining o'xshashlik darajasi tog' va adir mintaqalarida kuzatilib, Jakkar koeffitsiyenti bo'yicha - 0,43 ga teng (3-jadval).



1-rasm. *Turanena gissarika* sp.nov.
Chosh darasi, ko‘hi safed tog‘i,
Hisor tog‘ tizmasi.



2-rasm. *Turanena gissarika* sp.nov. Golotip:
A- reproductiv organi: S- sekum; E- epifallus;
F- flagellum; P- penis; SR- urug‘ qabul qilgich;
UVA-vagining yuqori qismi; LVA- vagining pastki
qismi; WE- epifallus bo‘rtmasi. B- yorilgan penis:
LP- bo‘ylama qatlam; VShP- V shakldagi burma.



3-rasm. Hisor tog‘ tizmasida suv qorinoyoqli mollyuskalarni balandlik mintaqalari va biotoplarda tarqalishi.


Yaylov mintaqasining tog‘ va adir mintaqalariga o‘xshashligi ham juda past darajada (Jakkar koeffitsiyenti -0,05 va 0,08).

Jakkar koeffitsiyenti asosida balandlik mintaqalar suv malakofaunasining o‘xshashlik dendrogrammasi (rasm-4) dan ko‘rinib turibdiki yaylov mintaqasi suv mollyuskalari faunasi boshqa balandlik mintaqalariga nisbatan eng yuqori darajada alohidalashgan bo‘lib, bu holat asosan yaylov hududidagi suv havzalarining o‘zaro gidrologik bog‘liqligi deyarli mavjud emasligi bilan izohlanadi.

3-jadval


Balandlik mintaqalarida suv qorinoyoqli mollyuskalarning o‘xshashlik indeksi (Jakkar koeffitsiyenti)

Tadqiqot hududlari	Adir	Tog‘	Yaylov
Adir	1		
Tog‘	0.43	1	
Yaylov	0.05	0.08	1



4-rasm. Balandlik mintaqalarda suv malakofaunasining o‘xshashlik dendrogrammasi.
1-adir, 2-tog‘, 3-yaylov mintaqasi.

Quruqlik qorinoyoqli mollyuskalarining balandlik mintaqalari bo‘yicha tarqalishi, tur tarkibi va populyatsiya zichligi adir, tog‘ va yaylov mintaqalarida 3-6 biotopda o‘rganilgan. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, tadqiqot hududida quruqlik qorinoyoqli mollyuskalari ham suv mollyuskalari kabi balandlik mintaqalari va biotoplarda notekis taqsimlangan –adir mintaqasida 19, tog‘ mintaqasida 30 va yaylov mintaqasida 8 tur tarqalgan (rasm-5).



5-rasm. Hisor tog‘ tizmasida quruqlik qorinoyoqli mollyuskalari balandlik mintaqalari va biotoplarda tarqalishi.

Balandlik mintaqalar bo‘yicha quruqlik mollyuskalarning o‘xshashlik holatida eng yuqori o‘xshashlik adir va tog‘ mintaqalarida qayd etilgan, u Jakkar koeffitsiyenti bo‘yicha 0,32 ga teng. O‘xshashlik koeffitsiyentining eng kichik qiymati yaylov va adir, yaylov va tog‘ mintaqalari orasida qayd etilib, u Jakkar koeffitsiyenti bo‘yicha 0,23-0,27 ga teng (4-jadval).


4-jadval

Balandlik mintaqalarida quruqlik qorinoyoqli mollyuskalarning o‘xshashlik indeksi (Jakkar koeffitsiyenti)

Tadqiqot hududlari	Adir	Tog‘	Yaylov
Adir	1		
Tog‘	0.32	1	
Yaylov	0.23	0.27	1


Yaylov mintaqasi boshqa mintaqalarga nisbatan eng yuqori darajada alohidalashgan bo‘lib, bu holat asosan yaylov hududidagi suv havzalarining o‘zaro va pastki balandlik mintaqalari bilan gidrologik jihatdan deyarli bog‘lanmaganligi, shuningdek, balandlik bilan bog‘liq iqlimiy cheklovlar va ekologik sharoitlarning o‘ziga xosligi bilan izohlanadi.

Balandlik mintaqalar faunasining o‘xshashlik dendrogrammasi (6-rasm) tahliliga ko‘ra, tog‘ mintaqasi faunasi boshqa mintaqalar faunasidan ko‘proq alohidalashgan bo‘lib, asosiy sababi, tog‘ mintaqasida boshqa mintaqalarga nisbatan quruqlik mollyuskalarning yashashi uchun optimal sharoiti mavjud bo‘lgan biotoplarning ko‘pligi hisoblanadi.




6-rasm. Balandlik mintaqalarda quruqlik malakofaunasining o‘xshashlik dendrogrammasi. 1-adir, 2-tog‘, 3-yaylov mintaqasi.

“Keng tarqalgan qorinoyoqli mollyuskalarda boradigan o‘zgaruvchanlik jarayonlari va molekulyar-genetik tahlili” deb nomlangan to‘rtinchi bobda so‘nggi 15-20 yil davomida O‘zbekiston va unga yondosh hududlarda tarqalgan quruqlik mollyuskalarda boradigan o‘zgaruvchanlik jarayoni (konxologik belgilarning o‘zgaruvchanligi) bir qator ishlarda o‘z ifodasini topgan bo‘lsada, biroq reproduktiv organida boradigan o‘zgaruvchanlik jarayonlariga oid malumotlar yetarli emas. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot hududining 2 populyatsiyada tarqalgan *Ch. intumescens* turining reproduktiv organida boradigan o‘zgaruvchanlik jarayonlari o‘rganilib, penial apendiksining u yoki bu darajada reduksiyaga uchrashi ko‘rsatib o‘tilgan (rasm-7-8).



7-rasm. 1-populyatsiyada *Ch. intumescens* turining reproduktiv organining o‘zgaruvchanligi.

A- penial apendiksining barcha bo‘limlari (A₁-A₅) to‘liq rivojlangan. B- A₁ bo‘limi rivojlanmagan. V- A₁-A₂ bo‘limlar reduksiyaga uchragan.




8-rasm. 2-populyatsiyada *Ch. Intumescens* turining reproduktiv organining o‘zgaruvchanligi.

A- penial apendiksining A₁ bo‘limi qisman rivojlangan. B- pyenial apendiksining barcha bo‘limlari (A₁-A₅) to‘liq reduksiyaga uchragan.

Ch. intumescens turining reproduktiv organida boradigan o‘zgaruvchanlik jarayonlarini molekulyar genetik jihatidan tahlil qilish maqsadida Hisor va Zarafshon tog‘ tizmalarida tarqalgan *Ch. intumescens* turining ribosomal DNK sini 18S sohasiga


mansub uzunligi 640 juft asosga ega bo'lgan nukleotidlari ajratib olinib o'rganilganda, quyidagicha ma'lumotlar olindi (rasm-9).

9-rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Hisor tog' tizmasida tarqalgan *Ch. intumescens* bilan Zarafshon tog'ida tarqalgan ushbu tur vakili ribosomal DNK (rDNK) ni 18S cohasi nukleotidlari o'rtasida 7 ta nukleotid farqlanish bo'lib, 1% ni tashkil qilgan. Bu Hisor va Zarafshon tog' tizmalarida tarqalgan *Ch. intumescens* turi vakillari reproduktiv organ tuzilishidagi o'zgaruvchanlik sabab bir-biridan keskin farq qilsada, nukleotidlar ketma-ketligi o'rtasida sezilarli darajada farqlanishlar mavjud emasligini ko'rsatib, namuna olingan tur vakillari ikkita populyatsiyada yashab, ekologik muhitga moslashish natijasida o'zgaruvchanlikka ega bo'lgan va bitta tur ekanligi bilan izohlanadi.



9-rasm. Hisor va Zarafshon tog' tizmalarida tarqalgan *Chondruloopsina intumescens* turining 18S ribosomal DNK nukleotidlar ketma-ketligi.

Yangi *T. gissarika* sp. nov. va *T. cognata* turlarining chig'anoq tuzilishi va morfologik belgilari bir-biriga o'xshashli e'tiborga olinib, bu turlarning mitoxondrial DNK sinig COI cohasi nukleotidlar ketma-ketligi solishtirib o'rganildi (rasm-10).




10-rasm. *Turanena gissarika* sp. nov. va *T. cognata* turlarining mitoxondrial DNK sini COI cohasi nukleotidlar ketma-ketligi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, *T. gissarika* turi bilan *T. cognata* numanasining mtDNK si COI cohasi nukleotidlari o'rtasida 52 ta nukleotid farqlanish bo'lib, 8% ni tashkil qildi. Olingan natija bu turlar konxologik jihatidan bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, genetik jihatidan alohida tur ekanligini tasdiqlaydi.


Tadqiqot hududining 2 populyatsiyada *Leucozonella hypophaea* reproduktiv organidagi o'zgaruvchanlik tashqi va ichki stilofor shaklida, penis papilasining tuzilishida kuzatiladi (rasm-11).

Olib borilgan molekulyar-genetik qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, Hisor va Oloy tizmasida tarqalgan *Leucozonella hypophaea* ning 18S ribosomal DNK nukleotidlar ketma-ketligi o'rtasida 4 ta (0,7%), Zarafshon va Hisor o'rtasida 3 ta (0,5%) farqlanish qayd etildi. Shuningdek, Oloy va Zarafshon namunasi o'rtasidagi nukleotidlarda farqlanish 6 ta (1%) bo'lib, Hisor, Zarafshon va Oloy tog' tizmalarida tarqalgan *L. hypophaea* turining 18S ribosomal DNK da genetik polimorfizm 0,7-1 % ni tashkil etishi aniqlandi (rasm-12).



11-rasm.A-B – *L.hypophaea* ning reproduktiv organining o'zgaruvchanligi Dilisoy darasi (Hisor tizmasi). Tst-tashqi stilofor; Ist-ichki stilofor; Pp-penis papilla; Pl-papillyar lakun.

Sangardak darasida (Hisor tizmasi) *L.hypophaea* ning reproduktiv organining o'zgaruvchanligi. Pp-penis papilla; Bq-bo'ylama qatlam, Pl-papillyar lakun.



12-rasm. Hisor, Zarafshon va Oloy tog' tizmalarida tarqalgan *L. hypophaea* turining ribosomal DNK ni 18S sohasi nukleotidlar ketma-ketligi.

Xulosa o'rnida shuni qayd qilish mumkinki, *L. hypophaea* turining 18S ribosomal DNK sidagi nukleotidlar o'rtasida sezilarli darajada farqlanishlar mavjud

emasligi mazkur turning Hisor, Zarafshon va Oloy tog‘ tizmalarida uchrovchi vakillari turli populyatsiyada yashab, ekologik muhitga moslashish natijasida o‘zgaruvchanlikka ega bo‘lgan bitta tur ekanligini e‘tirof etadi.

Dissertatsiyaning «**Hisor tog‘ tizmasi endemik va kamyob qorinoqqli mollyuskalari hamda ularning muhofaza choralari**» deb nomlangan beshinchi bobida tadqiqot hududi endemik va kamyob, muhofazaga muhtoj turlar tarkibi va tarqalishini aniqlash bo‘yicha tadqiqot natijalari bayon qilingan.

Tadqiqot natijasida Hisor tog‘ tizmasida qorinoqqli mollyuskalarning 23 turi (39,65%) endemik turlar hisoblanib, jumladan, endemik suv qorinoqqli mollyuskalari 7 ta (12,07%), quruqlik mollyuskalar 16 ta (27,58%) ekanligi qayd etilgan.

Hisor tog‘ tizmasi quruqlik mollyuskalaridan muhofazaga muhtoj turlar aniqlangan va ularning tarqalish xaritasi tuzilgan hamda *Ar. eleorina* va *H. inclatatus* turlarini O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitob” iga kiritish tavsiya etilgan.

XULOSA

“Hisor tog‘ tizmasi qorinoqqli mollyuskalarining (Mollusca: Gastropoda, Pulmonata) biologik xilma-xilligi” mavzusidagi biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Hisor tog‘ tizmasi qorinoqqli mollyuskalarining biologik xilma-xilligi ilk marotaba kompleks o‘rganilib, 59 tur aniqlangan, ulardan 21 tasi suv, 38 tasi quruqlik mollyuskalari hisoblanadi.

2. Suv mollyuskalaridan 5 tur (*S. pallida*, *L. bowelli*, *L. subdisjuncta*, *L. tengriana*, *L. rectilabrum*) hudud faunasi, 2 tur (*L. alticola*, *L. sirikulensis*) O‘zbekiston faunasi uchun yangi; quruqlik mollyuskalaridan esa 1 tur (*Turanena gissarika* sp. nov.) fan uchun, 1 tur (*C. columella*) O‘zbekiston faunasi; 2 tur (*C. izzatullaevi*, *X. krynickii*) hudud faunasi uchun yangi turlar sifatida qayd etildi.

3. Qorinoqqli mollyuskalar balandlik mintaqalari bo‘yicha notekis taqsimlangan bo‘lib: suv mollyuskalaridan adirda mintaqasida 18, tog‘da 12 va yaylov mintaqasida 2 tur aniqlangan. Eng yuqori o‘xshashlik tog‘ va adir mintaqalari orasida kuzatilgan. Quruqlik mollyuskalari adirda mintaqasida 19, tog‘da 30 va yaylov mintaqasida 8 turni tashkil etgan. O‘xshashlik darajasi bo‘yicha adir–tog‘ mintaqalari o‘rtasidagi Jakkar koeffisienti 0,32 ga teng bo‘lib, eng past o‘xshashlik 0,23 ga teng bo‘lib, adir va yaylov mintaqalari orasida qayd etilgan.

4. Keng tarqalgan turlar (*Ch. intumescens*, *L. hypophaea*) ayrim populyatsiyalarida reproduktiv organlarning morfologik o‘zgaruvchanligi tahlillarida hamda rDNK 18S sohasi molekulyar-genetik tahlillarda 0,7–1% farqlanish qayd etildi.

5. *Turanena gissarika* sp. nov. va unga o‘xshash *T. cognata* turlarining COI sohasi bo‘yicha 8% genetik tafovut aniqlanib, ularning alohida turlar ekani isbotlandi.

6. Aniqlangan 59 turning 23 tasi (39,65%) endemik bo‘lib, shundan 7 tasi suv, 16 tasi quruqlik mollyuskalaridir. Xalqaro Qizil kitob kriteriyalari (IUCN Red list categories and criteria) asosida baholanib, *Ar. eleorina* va *H. inclatatus* turlari “Zaif (VU:D)” maqomi bilan O‘zbekiston “Qizil kitob”iga kiritishga tavsiya etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ № PhD.03/2025.27.12.В.38.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ГУЛИСТАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ЖАЛАЛОВ ЖАМШЕД ЖАФАР УГЛИ

**БИОЛОГИЧЕСКОЕ РАЗНООБРАЗИЕ БРЮХОНОГИХ МОЛЛЮСКОВ
(MOLLUSCA: GASTROPODA, PULMONATA) ГИССАРСКОГО ХРЕБТА**

03.00.06 – Зоология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Гулистан -2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2025.2.PhD/B1457.

Диссертация выполнена в Термезском Государственном университете.
Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.karsu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Пазилов Абдуваит**
доктор биологических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Халимов Фазлитдин Закирович**
доктор биологических наук, доцент

Шакарбаев Улугбек Абдулакимович
доктор биологических наук, старший научный сотрудник

Ведущая организация: **Каршинский Государственный университет**

Защита диссертации состоится «25» апреля 2026 года в 11⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.B.38.03 при Гулистанском государственном университете (Адрес: 120100, Сырдарьинская область, город Гулистан, 4-массив. Тел.: (+99867) 225-39-25, факс: (+99867) 225-39-25, E-mail: glinfo@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Гулистанского государственного университета (зарегистрирована за №117). (Адрес: 120100, Сырдарьинская область, город Гулистан, 4-массив. Тел.: (+99867) 225-39-25).

Автореферат диссертации разослан «09» апрель 2026 г.

(Реестр протокола рассылки № 1 от «09» апрель 2026 г.).


Х.К.Каршибаев
Заместитель председателя
Научного совета по присуждению
учёных степеней, д.б.н., профессор

Ф.П.Гаибназарова
Учёный секретарь Научного
совета по присуждению учёных
степеней, PhD, доцент

Э.Б.Шакарбоев
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению учёных
степеней, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы исследования. Интенсивное преобразование природных экосистем под влиянием хозяйственной деятельности человека, особенно в горных и предгорных районах, приводит к нарушению экологического равновесия. Освоение предгорных территорий, вырубка древесно-кустарниковой растительности, чрезмерный выпас сельскохозяйственных животных вызывают деградацию местообитаний и изменение структуры биоценозов. Эти процессы оказывают существенное воздействие на животный мир региона, в частности, на разнообразие и численность моллюсков (Mollusca), которые играют ключевую роль в поддержании экосистемных связей и круговорота веществ в природе.

В мире активно проводятся научные исследования, направленные на оценку современного состояния моллюсков – одной из ключевых групп животных, играющих важную роль в поддержании функционирования экосистем Земли. Особое внимание уделяется определению фаунистического состава, анализу процессов изменчивости и факторов, влияющих на неё, выявлению закономерностей, а также разработке эффективных мер по сохранению редких и эндемичных таксонов. В рамках данных исследований приоритетное значение придается созданию геоинформационных систем (ГИС), включающих полные сведения о всех современных (рецентных) видах моллюсков, и формирование электронных баз данных для их комплексного учёта и анализа. Наряду с этим ведутся молекулярно-генетические исследования наиболее изменчивых и эндемичных видов, обитающих в пределах исследуемого региона.

В нашей республике особое внимание уделяется сохранению биоразнообразия экосистем, в том числе выявлению разнообразия моллюсков, а также формированию новой базы данных о них, в связи с этим выявлены новые для науки и фауны Узбекистана виды и разработаны меры по восстановлению исчезающих видов. В частности, в Стратегии по сохранению биологического разнообразия в Республике Узбекистан на период 2019-2028 годов определены задачи по... “³ обеспечению сохранения и устойчивого использования биологического разнообразия, развитию и расширению охраняемых природных территорий, снижению темпов деградации природных экологических систем, восстановлению редких и исчезающих видов животных и растений”. Исходя из этих задач, определение биоразнообразия брюхоногих моллюсков Гиссарского хребта, изучение их распространения по высотным поясам, молекулярно-генетический анализ высоко изменчивых и эндемичных видов, разработка мероприятий по восстановлению исчезающих видов имеет важное научно-практическое значение.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан УП-4947 от 7 февраля 2017 года “О Стратегии действий по

³ Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 июня 2019 года No 484 “Об утверждении Стратегии сохранения биологического разнообразия в Республике Узбекистан на период 2019-2028 годы”.

дальнейшему развитию Республики Узбекистан”,⁴ Указе Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”, Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан №914 от 7 ноября 2018 года “О ведении государственного учета, учета объемов использования и государственного кадастра объектов животного и растительного мира”, Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 484 от 11 июня 2019 года “Об утверждении Стратегии сохранения биологического разнообразия в Республике Узбекистан на период 2019-2028 годы”, а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики V. «Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды».

Степень изученности проблемы. Современное положение брюхоногих моллюсков в систематизации, их распространение и изменчивость нашли отражение в трудах ведущих зарубежных исследователей: R.J.Brown (2007), A.D.Robert (2013), M.V.Vinarski (2014), G.Atli, M.Grosell (2016), A.Piechocki, V.Wawrzyniak-Wydrowska (2016), WU.Min (2023), N.G.Kumari (2025).

Учёные ближнего зарубежья также внесли значительный вклад в разработку вопросов систематики, распространения и изменчивости брюхоногих моллюсков. Среди них - А.П.Стадниченко (2004), Н.Д.Круглов (2005), А.А.Шилейко (1979, 1984), А.А.Шилейко и Т.С.Римжанов (2013), К.К.Увалиева (1990), Э.А.Снегин и В.В.Адамова (2016), И.А.Балашёв (2021).

